

Toshkent viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-fevral dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 949 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 28 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 8 921 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 5 992,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 817,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 104,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 175,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 595,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 116,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 518 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 36 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 480 tani tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha 2026- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 8 597,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 6 904,7 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,2 % ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 80,2 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)





Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'ati Quyi Chirchiq (10 346,4 m.) tumani hamda Chirchiq (15,6 m.) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 2 903 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 892 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 261,8 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 113,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 78,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Ijrochi: M.Mirzokirov Tel: (+99871)203-45-00 (4541)	Manzil: Toshkent shahar Mirobod tumani Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2- uy
---	--	---